HUQUQSHUNOSLIK FANIDAN MILLIY TEST TIZIMI UCHUN TEST VARIANTI TAFSILOTI

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimi doirasida huquqshunoslik fanidan talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

I. TEST TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH UCHUN ASOS BO‘LUVCHI ME’YORIY HUJJATLAR

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 26-noyabrdagi PF–232-son Farmoni;

– Vazirlar Mahkamasining “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori;

– Vazirlar Mahkamasining “Milliy sertifikat berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 29-iyuldagi 411-son qarori;

– Huquqshunoslik faniga oid davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari.

II. QAMRAB OLINGAN BO‘LIMLAR

Davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari asosida huquqshunoslik fanining quyidagi bo‘limlari qamrab olinadi:

I. Davlat va huquq nazariyasi (asoslari);
II. Konstitutsiyaviy huquq asoslari;
III. Huquq sohalari.

III. TEST TOPSHIRIQLARINING TURLARI

Y-1 - bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lgan muqobil javobli yopiq test topshirig‘i;
Y-2 - vaziyatli yopiq test topshirig‘i;
O - qisqa javobni talab qiladigan ochiq test topshirig‘i.

IV. HUQUQSHUNOSLIK FANIDAN TEST VARIANT FORMATI

Bo‘lim	Topshiriqlar soni	№	Test turi
Davlat va huquq nazariyasi (asoslari); Konstitutsiyaviy huquq asoslari; Huquq sohalari	**32**	1	Y-1
		2	Y-1
		3	Y-1
		4	Y-1
		5	Y-1
		6	Y-1
		7	Y-1
		8	Y-1
		9	Y-1
		10	Y-1
		11	Y-1
		12	Y-1
		13	Y-1
		14	Y-1
		15	Y-1
		16	Y-1
		17	Y-1
		18	Y-1
		19	Y-1
		20	Y-1
		21	Y-1
		22	Y-1
		23	Y-1
		24	Y-1
		25	Y-1
		26	Y-1
		27	Y-1
		28	Y-1
		29	Y-1
		30	Y-1
		31	Y-1
		32	Y-1
	3	33	Y-2
		34	Y-2
		35	Y-2
	10	36	O
		37	O
		38	O
		39	O
		40	O
		41	O
		42	O
		43	O
		44	O
		45	O
Jami		**45**	
Test topshiriqlarini bajarish uchun ajratilgan umumiy vaqt – **90 daqiqa**			

V. TEST TOPSHIRIQLARI YORDAMIDA TEKSHIRILADIGAN FAN MAZMUNI TARKIBI

Kodi	FAN MAZMUNI TARKIBI
1. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI (ASOSLARI)	
1.1	**Shaxs, jamiyat va davlat.** Shaxs. Jamiyat. Davlat. Davlatning kelib chiqishiga doir nazariyalar. Davlat belgilari. Davlat funksiyasi. Davlatning boshqaruv shakli (monarxiya va respublika). Davlatning tuzilish shakli (unitar, federativ va konfederativ). Siyosiy tartibot (rejim). Jamiyatda inson huquqlarining o‘rni. Jamiyatda shaxsning huquqiy maqomi.
1.2	**Huquq**. Axloq va huquq. Huquq manbalari. Huquq normalari *(gipoteza, dispozitsiya, sanksiya)*. Huquq tarmoqlari (sohalari). Huquqiy munosabatlar *(O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonun)*.
1.3	**Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik.** Huquqiy xulq-atvor. Huquqbuzarlik. Yuridik javobgarlik. Yuridik javobgarlikning oqibatlari. *(O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi)* Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari (“*Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonun*). Adliya vazirligi. Advokatura va notarial idoralar (“*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida”gi NIZOM, “Notariat to‘g‘risida”gi qonun, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun*). Qurolli Kuchlar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
1.4	**Voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari.** Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari *(O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi)*. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari *(O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi)*. O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning javobgarligi. Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari *(O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi)*. Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari *(O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi,“Bolalarni ularning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun)*.
2. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI	
2.1	**Konstitutsiya va huquqiy davlat.** Konstitutsiya – davlatning asosiy Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi. Huquqiy davlatda Konstitutsiyaning o‘rni. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari. Davlat suvereniteti *(“O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun)*. Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari (“*Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonun*). O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunning ustunligi (*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi)*, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati *(“Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonun*).

2.2	**O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi.** O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikning umumiy qoidalari. Fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini tugatish va tiklash asoslari. Chet elda yashovchi vatandoshlar bilan munosabatlarni saqlash va rivojlantirish. *(“O‘zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi qonun).*
2.3	**Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.** Inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari. Shaxsiy huquq va erkinliklar. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy va madaniy huquqlar. Ijtimoiy huquqlar. Ekologik huquqlar. Inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari. Inson huquqlari va huquq ustuvorligi. Inson huquqlari va ijtimoiy himoya. Inson huquqlari bo‘yicha milliy Qonunchilik. Inson huquqlarini himoya qiluvchi organlar. *(“O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun, “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi to‘g‘risida”gi nizom,”Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun, “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun.*
2.4	**Fuqarolik jamiyati va davlat hokimiyati.** Jamiyat va shaxs. Fuqarolik jamiyati *(“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun).* O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (*“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun*). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti *(O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonun).* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi *(“O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonun).* Mahalliy davlat hokimiyati *(“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonun).* O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyati *(“Sudlar to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi qonuni).*
2.5	**O‘zbekiston va xalqaro hamjamiyat.** Xalqaro hamjamiyatning vujudga kelishi. Xalqaro huquq. Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik. Birlashgan Millatlar Tashkilotining organlari. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi. O‘zbekistonda mahalliy aholi va chet elliklar. *(“O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi qonun).*

3. HUQUQ SOHALARI	
3.1	**Oilaviy - huquqiy munosabatlar.** Jamiyatda oilaning o‘rni. Nikoh, uni tuzish va tugatish asoslari. Oilada er-xotin va ota-onaning huquqiy maqomi. Oilada bolalarning huquq va majburiyatlari. Ota-ona hamda bolalarning aliment huquqi va majburiyatlari. *(O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi)*
3.2	**Fuqarolik - huquqiy munosabatlar.** Fuqarolik huquqi asoslari. Fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlari va obyektlari. Mulkiy va nomulkiy munosabatlar. Majburiyatlar. Majburiyatlarning turlari. Iste’molchilar huquqlari. Intellektual mulk. Vorislik huquqi. *(O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun)*
3.3	**Mehnatga oid huquqiy munosabatlar.** Mehnatga oid huquqiy munosabatlar. Aholini ishga joylashtirish. Mehnat shartnomasi. Ish vaqti va dam olish vaqti. Mehnatga haq to‘lash hamda kafolatli kompensatsiya to‘lovlari. Mehnat shartnomasi taraflarining intizomiy va moddiy javobgarligi. Ayrim toifadagi xodimlar mehnatini tartibga solishning xususiyatlari. Mehnat muhofazasi va mehnat nizolari. (*O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonun)*
3.4	**Ma’muriy huquqiy munosabatlar.** Ma’muriy huquq tushunchasi. Davlat xizmatlaridan foydalanish. Ma’muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar ustidan shikoyat qilish. Ma’muriy huquq normalari. Ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik. Huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar va muassasalar. “Huquqbuzarlik profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonun. Ma’muriy huquqbuzarlik va ma’muriy javobgarlik. Ma’muriy jazo va uning qo‘llanishi. *(O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi.)*
3.5	**Jinoyat huquqi. Jinoyat protsessual huquqi.** Jinoyat huquqi. Jazo va uni tayinlash. Kriminologiya asoslari. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Zo‘ravonlik va uni oldini olish. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Iqtisodiyot va ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibi hamda jamoat xavfsizligiga, aholi salomatligi va genofondiga, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar. Jinoyat protsessi tushunchasi, prinsiplari va ishtirokchilari. *(O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi)*
3.6	**Atrof tabiiy muhitni huquqiy muhofaza qilish.** Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning siyosiy-huquqiy asoslari. Ekologik-huquqiy javobgarlik. Yerlarni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Suv resurslarini huquqiy muhofaza qilish. Atmosfera havosini huquqiy muhofaza qilish. Biologik xilma-xillikni muhofaza qilishning huquqiy asoslari *(O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni).*
4. JAZO VA UNING TURLARI, HUQUQIY ATAMALAR VA DIAGRAMMA (JADVAL)	
4.1	Jazo va uning turlari, huquqiy atamalar va diagramma (jadval)

VI. HUQUQSHUNOSLIK FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI YORDAMIDA TEKSHIRILADIGAN BILIM, KO‘NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALAR

Huquqshunoslik faniga oid test varianti abituriyentlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta’lim standartlari va huquqshunoslik fanidan umumta’lim o‘quv dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar		Kodi
Huquqshunoslik fani	Huquqiy ongga ega bo‘lish kompetensiyasi	– Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, Qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini biladi; – axloq va huquq qoidalarini biladi; – bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini biladi; – jamiyat, davlat va huquqning paydo bo‘lishi, huquqbuzarlik va ularning belgilari haqida ma’lumot beradi; – inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi; – hokimiyat va uning bo‘linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi; – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma’muriy va jinoyat qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlarni biladi; – O‘zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligida belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini biladi.	1.1
	Huquqiy madaniyatli bo‘lish kompetensiyasi	– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlarida belgilangan huquqlarini qo‘llay olish; – huquqiy ko‘nikma hosil qilish; – huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza olish; – huquqiy voqea va hodisalarga munosabat bildirishda huquqiy bilimni qo‘llay olish; – huquqiy voqea va hodisalarga oid to‘g‘ri xulosa chiqara olish.	2.2

VII. HUQUQSHUNOSLIK FANIGA OID KOGNITIV KO‘NIKMA DARAJASI

Quyi kognitiv daraja	Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarini bilish, normativ-huquqiy hujjatlarini mohiyatini va belgilarini tushuntirish.
Yuqori kognitiv daraja	Egallangan bilim asosida tanish va notanish sharoitda berilgan topshiriqni analiz va sintez qilish (huquqiy voqea va hodisalarni idrok qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish, voqealar izchilligini bilish, farqlay olish), grafik va diagrammalar bilan ishlay olish.

VIII. BAHOLASH MEZONLARI

Test natijalari xalqaro baholash metodikasi – Rash modeli asosida hisoblanadi.

Izoh: *Mazkur hujjatga aprobatsiyalar natijasi, vakolatli davlat tashkilotlarining tegishli buyruq va qarorlari asosida qo‘shimchalar, o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritilishi mumkin*.

HUQUQSHUNOSLIK FANLARINING MAVZULARIGA OID QONUNCHILIK HUJJATLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonun.
3. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonun.
4. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi qonun.
5. “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonun.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi qonun.
7. “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun.
8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
9. “O‘zbekiston Respublikasining Fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun.
10. “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun.
11. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
12. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
13. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi.
14. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
15. “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi to‘g‘risida” gi nizom.
16. “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonun.
17. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonun.
18. “Notariat to‘g‘risida”gi qonun.
19. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.

20. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi qonun.

21. “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun.

22. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi qonun.

23. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi.

24. “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun.

25. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida” gi nizom.

26. “O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi qonun.

27. “Tabiatni muhofaza qilishi to‘g‘risida”gi qonun.

28. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonun.

29. “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun.

30. “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonun.

31. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi qonun

32. “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonun.

33. “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi qonun.

34. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun.

35. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun.

36. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonun.

37. “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi qonun.

38. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonun.

39. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi.

40. “Bolalarni ularning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni.

***Izoh**: Ushbu qonunchilik hujjatlariga huquqshunoslik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturiga kiritilgan mavzular doirasida murojaat qilinadi.*

*Qonunchilik hujjatlari bilan **lex.uz** saytida tanishish mumkin.*